

IJTIMOIIY TARMOQLARNING SIYOSIY MAFKURALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Abdukamolov Asrorbek Abdumutolib o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik kafedراسي

Amaliy siyosatshunoslik mutaxassisligi magistranti

E-mail: asrorabdukamolov2002ail.gmail.com

Tel: +99890 222 29 29

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kunda siyosiy kommunikatsiyaning eng ta'sirchan kanallaridan biriga aylangani, fuqarolarning axborotga murojaat qilish, fikr bildirish va siyosiy muloqot jarayonlaridagi ishtirokini tubdan o'zgartirayotgani, hamda siyosiy mafkuralarni shakllantirishdagi o'rni va mexanizmlarini tahlil qiladi hamda uning milliy xavfsizlikka ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirlarini baholaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy media makon, tarmoq, mafkura, milliy xavfsizlik, dezinformatsiya, raqamli maydon, platforma, raqamli etnografiya.

Аннотация. В данной статье анализируется, как социальные сети стали одним из наиболее влиятельных каналов политической коммуникации в современном мире. Рассматривается, каким образом они кардинально трансформируют доступ граждан к информации, их возможности выразить мнение и участвовать в политическом диалоге. Кроме того, в статье исследуются роль и механизмы социальных сетей в формировании политических идеологий, а также оценивается их потенциальное влияние на национальную безопасность.

Ключевые слова: пространство социальных медиа, сеть, идеология, национальная безопасность, дезинформация, цифровое пространство, платформа, цифровая этнография.

Abstract. This article analyzes how social networks have become one of the most influential channels of political communication today. It examines how they are fundamentally transforming citizens' access to information, their ability to express opinions, and their participation in political dialogue. Furthermore, the article explores the role and mechanisms of social networks in shaping political ideologies and evaluates their potential impact on national security.

Keywords: social media space, network, ideology, national security, disinformation, digital space, platform, digital ethnography.

So'nggi o'n yillik davomida ijtimoiy tarmoqlar oddiy aloqa vositasidan siyosiy narrativlar yaratiladigan, ular ustida mafkuraviy raqobat kechadigan va keng jamoatchilik ongiga kuchaytirib uzatiladigan markaziy maydonga aylandi. Fuqarolar tobora ko'proq raqamli platformalardan nafaqat muloqot uchun, balki siyosiy axborotning asosiy manbai va o'z siyosiy identitetini shakllantirishning muhim vositasi sifatida foydalanmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, raqamli tarmoqlar qisqa vaqt ichida katta ommani safarbar qila oladi, yangi virtual jamoalar shakllanishiga zamin yaratadi va an'anaviy siyosiy ishtirok shakllarini tubdan o'zgartirish kuchiga ega¹¹. Shu bois mazkur masalalar doimiy ravishda siyosiy elitaning diqqat markazida bo'lib kelmoqda

Raqamli maydonning kengayishi ideologik munozaralar, siyosiy safarbarlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlari bir vaqtda sodir bo'ladigan yangi virtual muhitlarni yaratmoqda. Ushbu platformalar selektiv axborot iste'molini (selective exposure) kuchaytiruvchi hamda siyosiy qutblanishni (polarization) chuqurlashtiruvchi "aks-sado kameralari" (echo chambers) va "filtr pufakchalari" (filter bubbles) kabi hodisalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi¹². Siyosiy aktorlar hukumatlar, partiyalar, ijtimoiy harakatlar va xorijiy subyektlar -ushbu jarayonlardan o'z strategik maqsadlariga erishish uchun foydalangan holda xabarlarini tarqatish, jamiyat kayfiyatini shakllantirish va ommaviy qarashlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday o'zaro ta'sirlar noto'g'ri ma'lumotlar, muvofiqlashtirilgan dezinformatsiya kampaniyalari va algoritmik kuchaytirish orqali keng ko'lamli siyosiy manipulyatsiyaga aylanishi mumkin¹³.

Siyosiy kommunikatsiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning yetakchi o'rinni egallashi bevosita milliy xavfsizlikka oid tashvishlar bilan uzviy bog'liq. Raqamli tarmoqlar axborot urushining asosiy quroliga aylangan bo'lib, ular davlat va nodavlat subyektlarga ta'sir o'tkazish operatsiyalarini amalga oshirish, jamoatchilikda nizo va ixtiloflarni kuchaytirish yoxud zaif qatlamlarni nishonga olgan holda yollash va ekstremistik radikallashuvni keltirib chiqarish imkoniyatini yaratadi¹⁴. Siyosiy kommunikatsiya, jamoatchilik fikri va raqamli manipulyatsiya o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik onlayn platformalar ideologik maydonni qanday shakllantirishi va milliy xavfsizlik muhitida qanaqa zaifliklar yuzaga kelishini chuqurroq tushunishni taqozo etadi.

Tahlil natijalari ijtimoiy tarmoqlar siyosiy mafkura shakllanish jarayonida ham katalizator, hamda filtrlovchi omil sifatida ish yuritishini ko'rsatmoqda. Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent algoritmik tartibga solish bilan birgalikda, muayyan

¹¹ Tufekci, Z. (2018). *Twitter and Tear Gas: The Power and Fragility of Networked Protest*. Yale University Press.

¹² Sunstein, C. R. (2017). *#Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media*. Princeton University Press.

¹³ Tucker, J. A., Guess, A., Barbera, P., Vaccari, C., Siegel, A., Sanovich, S., Stukal, D., & Nyhan, B. (2018). *Social Media, Political Polarization, and Political Disinformation: A Review of the Scientific Literature*. Hewlett Foundation.

¹⁴ Prier, J. (2017). *Commanding the Trend: Social Media as Information Warfare*. Strategic Studies Quarterly, 11(4)

hodisalarni kuchaytiradi, shu bilan birga alternativ qarashlarni chetlab o'tishga xizmat qiladi. Ushbu tanlanmali axborot iste'moli (selective exposure) oldingi e'tiqodlarni mustahkamlashga olib keladi va ba'zida "aks-sado kameralari" deya ataluvchi g'oyaviy jihatdan bir xil jamoalarning tashkil topishini rag'batlantiradi¹⁵. Bu kabi jamoalar doirasida siyosiy diskurs ko'pincha yanada chuqur qutblanish holatiga o'tadi, zero, o'xshash qarashlarga doimiy duch kelish faqatgina o'zlarining qarashlari to'g'ri deb hisoblash moyilligini keskin kuchaytiradi va o'zgacha fikrlarga nisbatan murosasizlikni keltirib chiqaradi¹⁶.

Shuningdek, siyosiy aktorlar va manfaat guruhlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlardan strategik maqsadlarda foydalanish holatlarini ham yoritadi. Muvofiqlashtirilgan kampaniyalar, auditoriyani o'ta aniq nishonlash (micro-targeting) va kuchli hissiy mazmunga ega kontentdan foydalanish siyosiy munosabatlarga ta'sir o'tkazish hamda qo'llab-quvvatlashni safarbar qilish uchun qo'llaniladigan keng tarqalgan taktikalardir. Masalan, yuqori hissiy ta'sir kuchiga (ayniqsa, qo'rquv yoki g'azab) ega bo'lgan virusli kontent ko'proq foydalanuvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otadi va tezroq ulashiladi, bu esa uning mafkuraviy ta'sir doirasini kengaytiradi¹⁷. Bunday jarayonlar onlayn platformalarning an'anaviy ommaviy axborot vositalari nazorati chegaralaridan tashqarida ideologik ta'sirni tez va keng ko'lamda tarqatish imkoniyatini oshiradi.

Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar milliy xavfsizlik tizimiga o'ziga xos xavf tug'diradi. Siyosiy jihatdan tasirchan ma'lumotning jadal tarqalishi dezinformatsiya, xorijiy aralashuv yoki radikallashtirish sa'y-harakatlari uchun vosita sifatida foydalanilishi mumkin, bu esa davlatning nazorat qilish va samarali qarshi choralar ko'rish qobiliyatiga jiddiy sinovdir. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, raqamli yolg'on ma'lumotlar tarqalishi jamoatchilik fikirlash doirasida o'zgarishlar keltirib chiqarishi, davlat institutlariga bo'lgan ishonchni pasaytirishi, hatto saylov jarayonlariga ham ta'sir o'tkazishi ehtimoli mavjud¹⁸. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib ijtimoiy tarmoqlarning ikki qirrali tabiati yaqqol ko'rinadi, ular bir tomondan siyosiy ishtirok va safarbarlikni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan mafkuraviy manipulyatsiya va milliy xavfsizlikka oid yangi tahdidlar uchun imkoniyatlar yaratadi.

Bu kabi tahdidlarni bir qancha misollar orqali keltirish mumkin. Masalan, Arab Bahori (2010–2011) ijtimoiy tarmoqlarning siyosiy mafkuralarni shakllantirish va milliy

¹⁵ Cinelli, M., Morales, G. D. F., Galeazzi, A., Quattrociochi, W., & Starnini, M. (2021). "The Echo Chamber Effect on Social Media." *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 118(9).

¹⁶ Garimella, K., Morales, G. D. F., Gionis, A., & Mathioudakis, M. (2018). "Political Discourse on Social Media: Echo Chambers, Gatekeepers, and the Price of Bipartisanship." *Proceedings of the 2018 World Wide Web Conference (WWW '18)*, 913–922.

¹⁷ Stieglitz, S., & Dang-Xuan, L. (2013). "Emotions and Information Diffusion in Social Media—Sentiment of Microblogs and Sharing Behavior." *Journal of Management Information Systems*, 29(4), 217–248.

¹⁸ Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). "Social Media and Fake News in the 2016 Election." *Journal of Economic Perspectives*, 31(2), 211–236.

xavfsizlikka ta'sir ko'rsatishdagi rolini yaqqol namoyish etdi. Misr Arab Respublikasi misolida ko'radigan bo'lsak, **"We Are All Khaled Said"** nomli Facebook sahifasi 400 000 dan ortiq foydalanuvchini safarbar qilgan, norozilik namoyishlarini muvofiqlashtirgan va avtoritar rejimga qarshi islohotparvar xabarlarini tarqatgan¹⁹. Shu bilan birga, Twitter ham namoyishlarning eng yuqori cho'qqi davrida 230 000 dan ortiq foydalanuvchi siyosiy voqealar haqida faol tvitlar yozib, an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan tashqarida muholifatchilar fikrlarni tezkor tarzda tarqatadigan axborot oqimlarini yaratgan²⁰. Ushbu voqealar ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat safarbarlik vositasi, balki siyosiy qarashlarni shakllantirish va jamoatchilik ongini uyg'otishdagi strategik ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Bugungi global jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar fuqaro faolligini rivojlantirish va mafkuraviy ongni shakllantirishda muhim vosita bo'ldi, chunki ular fuqarolarga alternativ qarashlar bilan tanishish va demokratiya, inson huquqlari hamda boshqaruv masalalari bo'yicha ochiq munozaralarda ishtirok etish imkonini yaratdi. Fuqorolar o'rtasida rasmlar, videolar va namoyishlarga oid birlamchi kontent keng tarqalib, ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Misol uchun Qohira va Suvayshda sodir bo'lgan politsiya tomonidan amalga oshirilgan shafqatsizlikni o'z ichiga olgan YouTube videolari millionlab marta ko'rildi, fuqorolar o'rtasida davlat zulmi haqidagi umumiy fikr kuchaydi va namoyishchilar orasida birdamlikni kuchaytirdi²¹. Shuningdek, #Jan25 (Misr) va #SidiBouزيد (Tunis) kabi hashtaglar umumiy norozi fikr va siyosiy intilishlarni ramziy ifodalovchi markaziy safarbarlik vositasiga aylanishi, fuqarolarni birlashtirish va ijtimoiy faollikni kuchaytirishda muhim rol o'ynadi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat g'oyaviy tafakkur, balki siyosiy harakatlarni shakllantirish va keng jamoatchilik ongini o'zgartirishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar milliy xavfsizlikka oid jiddiy tahdidlarni keltirib chiqardi. Misr hukumati muhim namoyish kunlarida (2011-yil 27–28-yanvar) Facebook va Twitterga kirishni cheklashga urinishi mamlakat aholisining 93% dan ortig'ini deyarli to'liq internetsiz qolishiga sabab bo'ldi²². Ushbu choralarga qaramay, ijtimoiy tarmoqlardagi trafik mobil tarmoqlar, proksi-serverlar va VPN orqali keskin oshib bordi, bu esa raqamli siyosiy diskursni nazorat qilishning murakkabligini namoyish etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, onlayn monitoring hukumatlarga faollarni kuzatish va muxolifatni bostirish imkonini berdi, o'rni kelganda ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat fuqarolik faolligini rag'batlantirish, balki nazorat va kuzatuv vositasi sifatidagi o'rnini ochib beradi.. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar siyosiy ishtirok va milliy xavfsizlik o'rtasidagi

¹⁹ Howard, P. N., Araujo, T., & Hussain, M. (2011). *Opening Closed Regimes: What Was the Role of Social Media During the Arab Spring?* SSRN.

²⁰ Lim, M. (2012). *Clicks, Cabs, and Coffee Houses: Social Media and Oppositional Movements in Egypt, 2004–2011*. *Journal of Communication*, 62(2), 231–248.

²¹ Aday, S., Farrell, H., Lynch, M., Sides, J., Freelon, D., & Kelly, J. (2012). *Blogs and Bullets II: New Media and Conflict After the Arab Spring*. USIP.

²² Access Now. (2011). *Egypt's Internet Shutdown: 93% of Users Offline*.

murakkab bog'liqlikni ko'rsatadi. Birgina Arab Bahori nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham sezilarli siyosiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatdi. Global ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan ma'lumotlar xalqaro diplomatik javoblarni yuzaga keltirdi: BMTning Inson Huquqlari Kengashi va bir qator xorijiy hukumatlar demokratik islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi bayonotlar berdi, shu bilan birga, nodavlat tashkilotlar onlayn kontentdan foydalangan holda jamoatchilik e'tiborini oshirdi va gumanitar yordamni muvofiqlashtirdi. Ushbu jarayonlar ijtimoiy tarmoqlarning mahalliy mafkuraviy harakatlarni xalqaro miqyosda ta'sir kuchiga aylantirish qobiliyatini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy siyosiy kommunikatsiya tizimida nafaqat axborot almashinuv vositasi, balki **mafkuraviy konstruksiyalarni shakllantirish, jamoatchilik ongini boshqarish va siyosiy jarayonlarga strategik ta'sir ko'rsatishning murakkab mexanizmlariga ega bo'lgan raqamli makon** sifatida faoliyat yuritishini yaqqol ko'rsatadi.

Mutaxassislarni fikriga tayangan holda ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlar ikki qirrali tabiati bilan ajralib turadi va ular fuqarolik faolligini kengaytiradi, siyosiy jarayonlarda ishtirokni demokratlashtiradi va jamoatchilikka muqobil fikrlar bilan tanishish imkonini taqdim etadi. Ikkinchi tomondan esa **dezinformatsiya oqimlari, manipulyativ kampaniyalar, radikallashuv jarayonlari va xorijiy aralashuvga ochiq bo'lgan raqamli muhit** milliy xavfsizlik uchun sezilarli xavf tug'diradi.

Arab Bahori misolida ko'rsatib o'tilganidek, ijtimoiy tarmoqlar siyosiy safarbarlikning tezlashuvi, ommaviy noroziliklarning koordinatsiyalashuvi va g'oyaviy birlikning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynashi bilan bir qatorda, Shu bilan birga, raqamli platformalarning nazorat qilinishi, bloklanishi yoki siyosiy maqsadlarda ekspluatatsiya qilinishi ularning **milliy xavfsizlik, davlat barqarorligi va axborot suverenitetiga ta'sirchan omil** ekanini anglatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar siyosiy mafkuralar shakllanishi va milliy xavfsizlik bilan bog'liq jarayonlarda **integratsiyalashgan, dinamik va ko'p qirrali tizim** sifatida o'rganish zarurligini tasdiqlaydi va siyosiy kommunikatsiyani tartibga soluvchi siyosiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish, dezinformatsiyaga qarshi barqaror institutsional mexanizmlarni shakllantirish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlashni muhim vazifa ekanligini kun tartibiga qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tufekci, Z. (2018). *Twitter and Tear Gas: The Power and Fragility of Networked Protest*. Yale University Press.
2. Sunstein, C. R. (2017). *#Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media*. Princeton University Press

3. Tucker, J. A., Guess, A., Barbera, P., Vaccari, C., Siegel, A., Sanovich, S., Stukal, D., & Nyhan, B. (2018). *Social Media, Political Polarization, and Political Disinformation: A Review of the Scientific Literature*. Hewlett Foundation.
4. Prier, J. (2017). *Commanding the Trend: Social Media as Information Warfare*. *Strategic Studies Quarterly*, 11(4)
5. Hine, C. (2015). *Ethnography for the Internet: Embedded, Embodied and Everyday*. Bloomsbury Academic.
6. Bruns, A., & Burgess, J. (2015). "Twitter Hashtags from Ad Hoc to Calculated Publics." In N. Rambukkana (Ed.), *Hashtag Publics: The Power and Politics of Discursive Networks*. Peter Lang.
7. Bakshy, E., Messing, S., & Adamic, L. A. (2015). "Exposure to Ideologically Diverse News and Opinion on Facebook." *Science*, 348(6239), 1130–1132.
8. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). *Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making*. Council of Europe.
9. Cinelli, M., Morales, G. D. F., Galeazzi, A., Quattrociocchi, W., & Starnini, M. (2021). "The Echo Chamber Effect on Social Media." *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 118(9).
10. Garimella, K., Morales, G. D. F., Gionis, A., & Mathioudakis, M. (2018). "Political Discourse on Social Media: Echo Chambers, Gatekeepers, and the Price of Bipartisanship." *Proceedings of the 2018 World Wide Web Conference (WWW '18)*, 913–922.
11. Stieglitz, S., & Dang-Xuan, L. (2013). "Emotions and Information Diffusion in Social Media—Sentiment of Microblogs and Sharing Behavior." *Journal of Management Information Systems*, 29(4), 217–248.
12. Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). "Social Media and Fake News in the 2016 Election." *Journal of Economic Perspectives*, 31(2), 211–236.
13. Howard, P. N., Araujo, T., & Hussain, M. (2011). *Opening Closed Regimes: What Was the Role of Social Media During the Arab Spring?* SSRN.
14. Lim, M. (2012). *Clicks, Cabs, and Coffee Houses: Social Media and Oppositional Movements in Egypt, 2004–2011*. *Journal of Communication*, 62(2), 231–248.
15. Aday, S., Farrell, H., Lynch, M., Sides, J., Freelon, D., & Kelly, J. (2012). *Blogs and Bullets II: New Media and Conflict After the Arab Spring*. USIP.
16. Access Now. (2011). *Egypt's Internet Shutdown: 93% of Users Offline*.